

O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni

2024 11 Noyabr

Bugun, 11-noyabr kuni Uzbekistan Airways bosh ofisida Kasaba uyushmalari kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbir doirasida Boshqaruv raisining tijorat va turizm bo'yicha o'rinnbosari Shuxrat Yadgarov kasaba uyushmasi qo'mitasi a'zolarini tabriklab, eng faol ishtirokchilarga aviakompaniya nomidan sovg'alar topshirdi.





Uzbekistan Airways mehnat huquqlarini, xodimlar manfaatlarini himoya qiluvchi, ularning kasbiy o'sishi va farovonligi uchun sharoit yaratuvchi insonlarni bayram bilan muborakbod etadi. Kasaba uyushmalari ish joylarida adolatni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatimizda ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanishiga hissa qo'shadi.













